

KORRUPSIYA HUQUQIY VA IJTIMOY MUAMMO

Qudratov Javohir Komilovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 4-kurs talabasi Telefon
raqami: +998(94)971-80-01 E-mail: qudratovjavohir201@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya tushunchasi, uning huquqiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi. Korrupsiya jamiyat uchun misli ko'rilmagan darajadagi katta xavf ekanligi, taraqqiyot uchun salbiy ta'siri shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro tajriba, milliy qonunchilik va fuqarolarda korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish muhim ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, ijtimoiy muammo, korrupsiyaga qarshi kurash, poraxo'rlik, immunitetni shakllantirish, halollik tamoyili, xalqaro tajriba, qonuniylik.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие коррупции, а также её правовые и социальные аспекты. Отмечается, что коррупция представляет собой серьёзную угрозу для общества и оказывает негативное влияние на развитие. Также подробно рассматриваются механизмы борьбы с коррупцией. Кроме того, подчёркивается важность международного опыта, национального законодательства и формирования иммунитета к коррупции среди граждан.

Ключевые слова: Ключевые слова: коррупция, социальная проблема, борьба с коррупцией, взяточничество, формирование иммунитета, принцип честности, международный опыт, законность.

Annotation: This article analyzes the concept of corruption and its legal and social aspects. It highlights that corruption poses a serious threat to society and has a negative impact on development. The mechanisms for combating corruption are thoroughly examined. In addition, the article emphasizes the importance of international experience, national legislation, and developing anti-corruption immunity among citizens.

Key words: Corruption, social issue, anti-corruption legislation, bribery, developing anti-corruption immunity, principle of integrity, international experience, legality.

Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev

Bugungi globballashuv davrida korrupsiya dunyo davlatlarining katta qismida asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy balki huquqiy tizim va jamiyat hayotiga jiddiy xavf bo'lmoqda. Shuningdek, korrupsiya demokratiyaning rivojlanishiga, qonunlarning bir maromda amal qilishiga va fuqarolik jamiyatiga tahdid solmoqda. Korrupsiya – mansabdor shaxslarning o'z mavqeyini suistemol qilishi, pora olish, pora berish, tanishlari orqali jamiyat hayotiga xavf soladigan ishlarni amalga oshirishdir.

Korrupsiya shunchaki jinoyat emas, jamiyatni yemirib boradigan illatdir. Eng yomoni esa fuqarolarning davlat tashkilotlariga, organlariga, ularning chiqarayotgan qonun-u qarorlariga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Shuning uchun ham davlatlar korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqadi, unga qarshi ko'plab qonunlar chiqarishadi, turli xil loyihalarni, targ'ibot ishlarini amalga oshirishadi. Korrupsiya – huquqiy davlat tamoyillariga to'g'ridan-to'g'ri zid bo'lgan jinoyat hisoblanadi. Chunki korrupsiya qonun ustuvorligi va adolat prinsiplarini buzadi, har bir davlatda qonunlarning bir xilda amalga oshirilishi asosiy masala hisoblanadi. Lekin korrupsiya bor davlatda qonun normalari faqatgina qog'ozda bo'ladi, amalda esa tanish-bilish, mansabini suistemol qilish asosida faoliyat yuritadi.

Korrupsiyaning salbiy oqibatlaridan yana biri shundaki, u jinoiy ishlarni ham ortib borishini ta'minlaydi. Misol tariqasida aytish mumkinki, korrupsiya avj olgan tizimda jinoyat sodir etilishidan boshlab, sud jaroyonigacha bo'lgan vaqt mobaynida korrupsiyaning aloqasi bor, ya'ni dastlabki tergov, sud jarayonlariga noqonuniy ta'sir eta olishadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida pora olish, pora berish, lavozim vakolatini suiiste'mol qilish, shuningdek mansabdor shaxslarning qonunni o'ylab o'tirmasdan buzishi alohida jinoyat tarkibi sifatida kiritilgan. Buning uchun esa katta miqdorda jarima, bazi huquqlardan mahrum qilish shuningdek ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish kodeksda bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210, 211, 212, 213, 214-moddalarida bevosita pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, shuningdek davlat organining, davlat tashkilotlarining xodimlarini pora evaziga og'dirib olishga qarshi jazolar yozilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasida davlat mansabdor shaxsining o'z vakolatlarini suiiste'mol qilgan holda pora beruvchining foydasi uchun ma'lum bir ishni bajarishi va buning uchun shaxsan yoki vositachi orqali pora olishi ikki yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolanishi bayon etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 211-moddasida davlat tashkilotlarining mansabdor shaxslariga o'z mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi mumkin bo'lgan muayyan huquqbuzarlikni amalga oshirishi va bu ish natijasidan pora bergan shaxs manfaatdor bo'lishi besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish uchun yetarli bo'ladi. Bundan tashqari Jinoyat kodeksining 212,213,214-moddalarida pora olish va berishda vositachilik qilish, davlat organining, davlat tashkilotining mansabdor shaxsini pora evaziga og'dirib olish, shuningdek, mansabdor shaxsning qonunga xilof ravishda moddiy qiymatga ega bo'lgan buyumlar olishi, pul, mulkiy manfaatdorligi uchun og'ir jazolar belgilangan.

Umuman olganda qonunchilikning mavjudligining o'zi yetarli emas chunki qonunchilikni cheklab o'tib ko'plab qing'ir ishlar bilan shug'ullanib yurganlar yetarlicha. Yechim faqat bitta korrupsiyaga nisbatan aholi orasida toqatsizlik muhitini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining

samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi tashkil etildi.⁵

Hozirgi globallashuv davrida korrupsiyaga qarshi nafaqat bir davlat doirasida, balki xalqaro darajada ham kurashish zarurati yanada oshdi. Binobarin, korrupsiya hech bir davlatga foyda keltirmaydi, aksincha, mamlakatdagi demokratik islohotlarga, mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va ushbu turdagi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada zaruriy chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi hamda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurashishda salmoqli yutuqlarga erishilganini e'tirof etish lozim⁶.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmasi (UNODC). Korrupsiyaga qarshi BMT Konvensiyasi. 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan.

2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari: "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (03.01.2017-yil, O'RQ-419-son); O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (29.06.2020-yil, PF-6013-son).

3. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi (Ombudsman). O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari. — <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m9490>

4. O'zbekiston Respublikasi Ombudsman rasmiy sayti. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari. — <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirtish-masalalari>

5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (210–214-moddalar) — Pora olish, pora berish va vositachilik qilish bilan bog'liq jinoyatlar.

6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021-yil.

⁵ «O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini takomillashtirish masalalari». Ombudsman.uz. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-davlat-siyosatini-takomillashtirtish-masalalari> kiritildi: (02.06.2025)

⁶ Inson Huquqlari Milliy markazi (Uzbekistan). <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m9490> kiritildi: (03.06.2025)